

MAKTAB DIREKTORLARINING HUQUQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Isoxonov Javlonxon Hasan o'g'li,

Oriental universiteti Magistratura fakulteti dekan o'rinbosari

E-mail: javlonxonisoxonov87@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarning huquqiy bilimlarini rivojlantirish va amaliyot davrida huquqiy bilimlardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining huquqiy bilimlarini rivojlantirishda normativ-huquqiy baza bo'lishi zarurligi ta'kidlab o'tilgan.

Huquqiy kompetentlikning mohiyati va uning zamonaviy ta'lim jarayonlariga oid ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish hamda ta'lim-tarbiya jarayonining ishlash mexanizmi va tipologiyasining ilmiy asoslarini ochib berish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy kompetensiya, bilim, ko'nikmalar, fikrlash, mehnat kodeksi, tajriba.

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Maktab direktorlari ish faoliyatini takomillashtirishda huquqiy kompetentlikning ahamiyati yoritildi. Bugungi kunda direktorlarning huquqiy bilimlarini rivojlantirish eng dolzarb masalalardandir. Direktorlarning oldida turgan eng muhim masala ham huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasidir. Maktab direktorlarining huquqiy bilim va amaliyoti yetarli emasligi muammo sifatida o'rganilishga sabab bo'ladi.

Maktab direktori boshqaruv faoliyati jarayoni ijodiy jarayon bo'lib, turli hil kutilmagan vaziyatlarda stereotiplarni yengish, bo'ysunuvchilar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarda hamda muommoli vaziyatlarni bartaraf etishda oqilona qarorlar qabul qilish, ularning bajarilishini nazorat qilishda rahbarning qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Kompetensiya- ma'lum bir fan sohasida samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va tajribaning mavjudligi.

Boshqaruvda asosiy kompetensiyani tushunish, uni qo'llash usullari, shakllari, vositalaridan maktab direktorlari to'liq xabardor bo'lishi juda muhim. Hozirgi globallashuv davrida fan-texnika rivojlanish umumta'lim maktablarida olib boriladigan katta islohatlar ta'lim-tarbiyaning mazmunini o'zgartirishni, shuningdek, ta'lim

¹ Р.Х.ДЖураев, С.Т.Турғунов., "Таълим менежменти", Ўқув қўлланма. – Тошкент, "Ворис-Нашриёт"., 2006, 203-бет

tizimini bugungi zamon talablari asosida boshqarishni talab etmoqda. Demak, bugungi pedagogik xodimlarni boshqarishda yangicha usulga ega bo'lgan huquqiy bilimlardan xabardor, har tomonlama rahbarlik kompetentligini o'zida mujassamlashtirgan shaxs boshqarishini jamiyatning o'zi talab qilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining huquqiy kompetensiyalari maktab faoliyati muvaffaqiyatiga bilvosita emas bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli direktorlar huquqiy bilimlarini muntazam ravishda rivojlantirib borishi lozim. Hozirgi kunda direktorlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Bu bilimlar boshqaruv faoliyatini professional darajada amalga oshirishga, ta'lim tizimi faoliyatini ta'minlashning normativ-huquqini to'g'ri qo'llashga, huquqbuzarlik holatlarini oldini olishga, turli xil nizolarga qonuniy yechim topishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular rahbarlik qilayotgan ta'lim muassasasining muammolarini hal qilishga yordam beradi. Hozirda ko'plab muammolar, huquqbuzarliklar huquqiy bilimlarni yetishmasligi sababi kelib chiqmoqda. Mehnat munosabatlarida asosan ishga qabul qilish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish, hujjatlarni rasmiylashtirishda huquq bilimlarni oshirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sohasini bevosita tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat bu "Ta'lim to'g'risidagi qonundir. Ushbu qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.²

Malaka oshirish tizimida ta'lim muassasalari direktorlarning huquqiy vakolatlarini shakllantirish uchun tashkiliy va ilmiy-uslubiy sharoitlarni aniqlash kerak. Huquqiy savodxonlikni kasbiy zarur sifat sifatida shakllantirish quyidagi hollarda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin:

Umumiy ta'lim muassasasida ta'lim munosabatlarining huquqiy mohiyatini ta'minlash;

Direktorning uning huquqiy holati va ta'lim munosabatlaridagi sheriklarning huquqiy to'g'risidagi bilimlari;

Uning huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish, shuningdek, ushbu munosabatlarning qarama-qarshi sebyektlarning huquqlari va manfaatlarini hurmat qilish va himoya qilish qobiliyati;

Huquqiy kompetensiya paradigmalarining nazariy rivojlanishi va muayyan ta'lim vaziyatlarida huquqiy xatti-harakatlarning tashkiliy shakllari va ilmiy usullarni amaliyotga tadbiq etish;

Malaka oshirish tizimida direktorlarning huquqiy vakolatlarini shakllantirish uchun ushbu shartlar maxsus o'quv kurslarining mazmuni va ilmiy-uslubiy ta'minoti

² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y, 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y, 03/21/721/0952-son

hamda bevosita ta'lim muassasalarida direktorlar uchun huquqiy amaliyotning tashkiliy shakllarini yaratish mumkin.

Ta'lim sohasidagi qonun hujjatlarida eng asosiy tushunchalar qo'llaniladi. Mazkur tushunchalar ta'lim sohasida obyekt va subyekt faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayonlarga oid tushunchalarni belgilaydi va har bir tushunchaning mazmunini ochib beradi.³

Huquqiy vakolat- bu hokimiyatning qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlaridan pedagogik faoliyatda samarali foydalanishni ta'minlovchi mahalliy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish; mavjud qonun doirasida qaror qabul qilish. Boshqacha qilib aytganda, huquqiy kompetensiya-bu mutaxassisning ta'lim sohasidagi vaziyatni qonunchilik nuqtai nazaridan to'g'ri yo'naltirish, mavjud bilimlar asosida turli murakkablikdagi muammolarni hal qilish qobiliyatidir.

Mehnat kodeksi- bu har bir xodim bilishi kerak bo'lgan majburiy hujjat va nafaqat pedagogik uchun, barcha xodimlarning faoliyati mehnat kodeksi tomonidan tartibga solinadi, biz har kuni bunga duch kelamiz. Ushbu hujjat asosida ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, ta'tilni berish, dam olish kunlari, qo'shimcha to'lovlar, ijtimoiy nafaqalar va imtiyozlar, mehnat nizolarini hal qilish, mehnatni muhofaza qilish va mehnatni muhofaza qilish sharoitlariga muvofiq ravishda tashkil etish amalga oshiriladi. Mehnat kodeksiga ko'ra, davlat fuqarolarning mehnat huquqlari va erkinliklarini, qulay mehnat sharoitlarini yaratishni, xodimlar va ish beruvchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydi.

Maktab direktorlarning huquqiy bilimlarini belgilovchi aniq klassifikatsiyani ishlab chiqish kerak. Huquqiy bilimlar klassifikatsiyasi deganda maktab direktorlarining ish faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin har qanday jarayonda ongli ravishda huquqiy normalarga rioya etish va ularni qo'llash tushuniladi.

XULOSA

Maktab direktorlari ish faoliyati jarayonida mehnat qonunchiligi, mehnat munosabatlariga ko'proq kirishadi, shuningdek mehnat qonunchiligining ayrim munosabatlari bo'yicha davriy malaka oshirishlarni tashkil etish lozim. Xususan, xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzish, xodimlarni majburiy mehnatga jalb etish, ish vaqti rejimlari, kadrlarni ishga qabul qilish yoki bo'shatish buyruqlarni tuzishda asosiy e'tiborni qaratish lozim. Shuningdek, maktab direktorlarining lavozimiga tanlash va tayinlashda ularning huquqiy bilimlarini va amaliyotga qo'llay olish ko'nikmalarini o'rganish yuzasidan aniq mexanizm ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari maktab direktorlarining huquqiy bilimlarini belgilovchi aniq standartlar ham ishlab chiqish va ularning komponentlarini shakllantirish talab etiladi. Avval hozirgi

³ Ботиров Хамид Хакимович, "Умумий ўрта таълим муассасалари бошқарувида ҳуқуқий масалалар" - Ўқув кўлланма- Тошкент, 9-бет

kunda maktab direktorlarining huquqiy bilimlari doirasini aniqlash va buning natijasida huquqiy bilimlarini rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish lozim.

REFERENCES

1. R.X.DJurayev, S.T.Turg'unov., "Ta'lim menejmenti", O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Voris-Nashriyot"., 2006,
2. Botirov Hamid Hakimovich, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruvida huquqiy masalalar"- O'quv qo'llanma- Toshkent,
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-637-son 23.09.2020 yil 4-bob, 29-modda.
4. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi rasmiy hujjatlarning davlat namunasini tasdiqlash haqida.
5. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida.

